

I-SHOBA: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA MOLİYAVIY HISOBOTNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

RAQAMLI MOLİYAVIY AKTIVLARNING BUXGALTERIYA HISOBI

Kurbanov Ziyat Niyazovich
TDIU professori, i.f.d., professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli moliyaviy aktivlarning buxgalteriya hisobining ba'zi nazariy masalalari yoritilgan. Xorij tajribasidan foydalanilgan holda kriptovalyuta operatsiyalarini buxgalteriya hisobi bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy aktiv, raqamli moliyaviy aktiv, raqamli valyuta, kriptovalyuta, daromad, buxgalteriya hisobi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются некоторые теоретические вопросы бухгалтерского учета цифровых финансовых активов. Приведены предложения по бухгалтерскому учету криптовалютных операций с использованием зарубежного опыта.

Ключевые слова: финансовый актив, цифровой финансовый актив, цифровая валюта, криптовалюта, доход, бухгалтерский учет.

Abstract. This article examines some theoretical issues of digital financial assets accounting. Proposals for accounting for cryptocurrency transactions using foreign experience are presented.

Keywords: financial asset, digital financial asset, digital currency, cryptocurrency, income, accounting.

Kirish. Jahon va mamlakatimiz iqtisodiyotini raqamlashtirish jarayoni buxgalteriya hisobining nazariy masalalari qayta ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bu sharoitda buxgalteriya hisobining mavjud modellarini, obykti va metodlarini iqtisodiyotini raqamlashtirish jarayoniga moslashtirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, buxgalteriya hisobini tashkil etish va moliyaviy hisobot shakllarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga uyg'unlashtirish zarur.

Xalqaro amaliyotni o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatlar va iqtisodchi olimlar, amaliyotchi buxgalterlar raqamli moliyaviy aktivlarni buxgalteriya hisobining metodologiyasi borasida yagona fikrga kelishgani yo'q. Bu esa raqamli moliyaviy aktivlar, shu jumladan kriptovalyutaning buxgalteriya hisobi metodologiyasini takomillashtirishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi qanday tashkil etiladi va uning metodologiyasida nimalar o'zgaradi? Raqamli moliyaviy aktivlar, shu jumladan kriptovalyutaning buxgalteriya hisobini tashkil etish amaliyoti qanday bo'ladi. Raqamli moliyaviy aktivlar buxgalteriya hisobi amaliyotini tashkil etishda qaysi MHXSlaridan foydalanish borasida iqtisodchilarning fikrlari turlicha.

MHXS kengashi (FASB) 2019-yildagi yig'ilishida kriptovalyutaning buxgalteriya hisobi masalasini muhokama qilib, uning buxgalteriya hisobini tashkil etish va moliyaviy hisobotda aks ettirish muammosi bo'yicha rasmiy ko'rsatmalar berdi. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asoslari moliyaviy hisobotlarning elementlarini aniqlash va tan olish bilan bog'liq holda, kriptovalyuta investitsiya uchun sotib olingan va faol bozorga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar ta'rifiga javob berishi belgilangan. Shunga asoslangan holda kriptovalyutaning hisobini MHXS 38-"Nomoddiy aktivlar" standartga muvofiq olib borish lozim [6].

A. V. Bodyako, S.V.Ponomareva, T.M.Rogulenklar kripto-aktivlarni zaxira sifatida hisobga olishni taklif etishgan: MHXS (IAS) 2 "Zaxiralar" odatdagi biznes jarayonida sotish uchun saqlangan kripto aktivlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin [2].

A.A.Romanov va P.A.Romanovlar kriptovalyutani quyidagicha izohlaydi: Bitkoin ishtirokchilarning ishonch muammosini hal qilishga muvaffaq bo'lgan birinchi kriptovalyutaga aylandi. So'nggi yillarda kriptovalyutalar, xususan, bitkoin"global raqamli valyuta" sifatida o'z pozitsiyalarini sezilarli darajada mustahkamladi: global kriptovalyuta bozorining kapitallashuvi 2021-yilning noyabr oyi uch trillion AQSH dollaridan oshdi va 2021-yilda ushbu bozordagi kunlik savdo aylanmasi 300 milliard dollarga yetdi [7].

R.M.Gaybullayevning fikricha, blokcheyn texnologiyasini buxgalteriya hisobida foydalanish juda katta salohiyatga ega bo'lib, u muayyan qoidalarga muvofiq chiziqli "blokklar" zanjiri hisoblanadi. Bu markazlashtirilmagan boshqaruvda yagona ma'lumotlar bazasi bo'lib, u ko'plab kompyuterlarga taqsimlanadi. Blokcheyn ko'pincha "tarqatilgan ma'lumotlar bazasi" deb ham nomlanadi [4].

V.Avdeevning qarashicha, Rossiya qonunchiligiga asosan kriptovalyuta "raqamli valyuta" deb ataladi. Raqamli valyuta - rubl yoki chet el valyutasi bo'lmagan to'lov vositasi sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan elektron ma'lumotlar to'plami. Ushbu ma'lumotlar bo'yicha sizning oldingizda hech kim javobgar emas, ushbu axborot tizimining qoidalariga muvofiq chiqishni ta'minlaydigan va kiritishni ta'minlaydigan tizim operatorlari (tugunlari) bundan mustasno [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli moliyaviy aktivlar buxgalteriya hisobi masalasini o'rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to'plash, tasavvur qilish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo'yish kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagilarga asoslangan holda, bizning fikrimizcha, kriptovalyuta — maxsus kodlar orqali himoyalangan raqamli moliyaviy aktiv bo'lib, jo'natma operatsiyalarida pul o'rnida ishlatiladi. Raqamli iqtisodiyotni shakllanishi sharoitida kriptovalyuta operatsiyalari buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish obyekti bo'lib hisoblanadi.

Jahon amaliyotida elektron pullardan tashqari, raqamli valyutalarning quyidagi turlari-kriptovalyuta, steyblkoin va markaziy bankning raqamli valyutasi amal qiladi.

Raqamli valyuta asosan ikki guruhga bo'linadi: virtual valyutalar va elektron valyutalar. Biz yuqorida kriptovalyutaga to'xtalib, uning iqtisodiy mohiyatini ochishga harakat qildik.

Xalqaro amaliyotda moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asoslari moliyaviy hisobotlarning elementlarini aniqlash va tan olish bilan bog'liq holda, kriptovalyuta investitsiya uchun sotib olingan va faol bozorga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar ta'rifiga javob berishi belgilangan. Shunga asoslangan holda kriptovalyutaning hisobini MHXS 38-“Nomoddiy aktivlar” standartga muvofiq olib borish belgilangan.

Agar kriptovalyuta sotish uchun mo'ljallangan bo'lsa, u holda MHXS (IAS) 2 “Zaxiralar” standarti qo'llaninadi.

Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligining tegishli me'yoriy hujjatlariga asosan tokenlarni sotib olish va hisobdan chiqarishda quyidagi buxgalteriya yozuvlari qilinishi belgilangan:

1.Token qiymati mol yetkazib beruvchilarga to'langanda:

Dt schyot-60 “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob kitoblar”

Kt schyot-51 “Hisob kitob schyoti”;

Token qiymat zaxira sifatida hisobga olinganda:

Dt schyot-10 “Materiallar”;

Mol yetkazib beruvchilardan tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilishda hisobga olingan QQS summasi:

Dt schyot-19 “Sotib olingan qiymatliklar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i”

Kt schyot-60 “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob kitoblar;”

Hisobga olingan QQS summasiga:

Dt schyot-68 “Soliqlar va yig'imlar bo'yicha hisob kitoblar”

Kt schyot-19 “Sotib olingan qiymatliklar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i”;

Hisobdan chiqarilgan token qiymatini faoliyat turlari bo'yicha xarajatlarga olib borish:

Dt schyot-26 “Umumxo'jalik xarajatlari”

Kt schyot-10 “Materiallar” [3].

Ukrainada esa kriptovalyutalarni 15 -“Kapital investitsiyalar” schet orqali buxgalteriya hisobida aks ettirish taklif etilgan [5].

Endi mamlakatimiz raqamli moliyaviy aktivlar yoki kripto-aktivlarning buxgalteriya hisobi qanday tashkil etilganligini ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi hamda Soliq qumitasining (14-dekabr 2022-yil № 06/17-01-32/278 14-dekabr 2022-yil № 2022-42) Kripto-aktivlar operatsiyalarining buxgalteriya hisobi to'g'risida AXBOROT XABARIda [8] birlamchi buxgalteriya hujjatlarida, agar majburiy rekvizitlar mavjud bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonuni talablariga muvofiq qo'shimcha rekvizitlar bo'lishi mumkin. Kripto-aktivlari haqida ma'lumot ularni olish usuli va maqsadiga qarab kripto-aktivlari aylanmasi sohasidagi tashkilotlarning, shu jumladan, nomoddiy aktivlarni yoki tovar moddiy zaxiralarni hisobga olish uchun mo'ljallangan buxgalteriya hisobvaraqlarida

mayning bilan shug'ullanadiganlarning buxgalteriya hisobida aks etadi. Agar kripto-aktivlari nomoddiy aktivlarning bir qismi sifatida tan olinishi shartlariga javob bersa, unda bunday aktivlarni hisobga olish 7-sonli "Nomoddiy aktivlar" Buxgalteriya hisobining milliy standartiga (BHMS) muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Kripto-aktivlarini elektron platformalarda yoki xizmat kursatuvchi provayderlarning boshqa platformalarida (kripto aktivlarini ayirboshlash sohasida sotish uchun sotib olingan bo'lsa, 4-sonli "Tovar-moddiy zaxiralari" BHMSda belgilangan tartibda ushbu aktivlar tovarlar tarkibida eng past ikkita qiymatdan biri bo'yicha - haqiqiy tannarxda (sotib olish narxida) yoki realizatsiya qilinadigan qiymatda aks ettiriladi. Ushbu axborot xabarda kripto-aktivlarning buxgalteriya hisobi qaysi schyotda aks ettirilishi keltirilmagan.

Xulosa. Shunday qilib, raqamli moliyaviy aktivlarning buxgalteriya hisobi borasida olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi taklif va xulosalar shakllantirildi:

agar kriptovalyuta nomoddiy aktiv sifatida tan olinsa, uning buxgalteriya hisobini 0400 - "Nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar" schyoti tarkibida kriptovalyutalarni hisobga oluvchi 0450 - "Kriptovalyuta" ishchi schyotini ochishni taklif qilamiz.

agar kriptovalyuta sotish uchun olingan bo'lsa, uni zaxira sifatida tan olish kerak va uning hisobini tashkil etish uchun 1210 - "Kriptovalyuta" ishchi schyotni ochish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xalqaro amaliyotda agar kriptovalyuta nomoddiy aktiv sifatida tan olinsa, uning buxgalteriya hisobi MHXS (IAS) 38 "Nomoddiy aktivlar" standarti bilan, agarda kriptovalyuta sotishga muljallangan bo'lsa, u holda MHXS (IAS) 2 "Zaxiralar" standarti bilan tartibga solinadi. Shundan kelib chiqqan holda kriptovalyutaning buxgalteriya hisobini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Авдеев В.Криптовалюта, NFT, цифровые активы: учет и налогообложение в РФ. <https://www.audit-it.ru/articles/account/assets/a1032583/1032591.html>.

2. Бодяко А. В., Пономарева С. В., Рогуленко Т. М. Идентификация цифровых прав в качестве объекта учета и контроля. Учет. Анализ. Аудит = Accounting.Analysis.Auditing. 2021; 8(5):14-27. DOI: 10.26794/2408-93032021-8-5-14-27.

3. Бодяко А. В., Развитие методологии учетно-контрольных процессов в условиях цифровой экономики. Управление. 2020;8(1):47-56.

4. Gaybullayev R. M., Bobomurodova S. Z. Buxgalteriya hisobida raqamli axborot texnologiyalarini qo'llash istiqbollari. JOURNAL OF ECONOMICS, FINANCE AND INNOVATION 2022 ISSN: 2181- 3299 Volume-II Issue 1.

5. Как вести учет криптовалюты в Украине: юридические нюансы, налоги и примеры проводок. <https://finacademy.net/materials/article/uchet-kriptovalyuty>.